

BO‘G‘LOVCHI VA ULARNING TURLARINI O‘QITILISHI

Xazratqulova Sevinch Anvar qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU talabasi

hazratqulovasevinch410@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bog‘lovchilarning qo‘llanilishiga ko‘ra turlari, gap bo‘laklari va gaplarni bir-biriga ko‘ra turlari, hamda bog‘lovchilarning vazifalarini haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: bog‘lovchilar, so‘zlar, gap, qo‘shma gap, ayiruv bog‘lovchilari, zidlov bog‘lovchilari, takrorlanuvchi bog‘lovchilar, sof bog‘Iovchi, nisbiy bog‘Iovchi, qo‘shimchasimon bog‘lovchi.

Til inson muloqotining eng muhim vositasi bo‘lib, fikr va tuyg‘ularni ifodalashda, insonlar o‘rtasida aloqa o‘rnatishda alohida o‘rin tutadi. Tilning mazmuni va mahorati nutqni tashkil etuvchi qismlar orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu qismlardan biri – bog‘lovchilardir. Ular matn va nutq bo‘laklari o‘rtasida mantiqiy va ma’noli aloqani ta’minlaydi. Bog‘lovchi so‘zlar fikrni ravon va tushunarli ifodalashga yordam beradi, o‘quvchining matndan to‘laqonli mazmun va mohiyat olishini ta’minlaydi. Ushbu maqolada bog‘lovchi so‘zlarning til va nutqdagi roli, ularning xilma-xilligi hamda ahamiyati haqida batafsil ma’lumot beramiz.

Adabiyotlarda bog‘lovchilar haqida ko‘plab ma’lumotlar berilgan. Quyidagi ma’lumotni ko‘rib chiqamiz. Sayfullayeva R. va boshqa mualliflar ”Hozirgi o‘zbek adabiy tili” o‘quv qo‘llanmasida bog‘lovchi haqida keng ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Bog‘lovchi va uning shakliy ko‘rinishlari. Bog‘lovchi ham ko‘makchi kabi sintaktik aloqa vositasi sanalib, ulardan tobe munosabatni ifodalashdan tashqari, teng munosabatni ham hosil qilishi bilan ajralib turadi. Bog‘lovchi gap bo‘laklari, qo‘shma gapning sodda gappa teng qismlari orasidagi turlicha aloqani, grammatik munosabatni ko‘rsatadi. Bog‘lovchining mohiyati, o‘zbek adabiy

tilidagi bog'lovchining turi, bu turga oid so'zlar tilshunosligimizda keng o'rganilgan. Mavjud adabiyotlarda bog'lovchining turi va bu turga qaysi so'z mansubligi masalasida turlicha nuqtayi nazar bor, ya'ni bir tadqiqotda bog'lovchi deb berilgan birlik boshqasida yuklama qatoriga kiritiladi, ko'makchi deb berilgan birlik bog'lovchi deb tan olinadi. Bog'lovchiga oid so'zning aniq belgilanmasligi sababi ular lison-nutq jihatidan o'rganilmaganligida bo'Isa kerak.

Bog'lovchini ham ko'makchi singari shakliy jihatdan uch guruh (sof bog'lovchi, nisbiy bog'lovchi, qo'shimchasimon bog'lovchi) ga ajratib o'rganish lozim. Sof bog'lovchi guruhi faqat bog'lovchi vazifasida qo'llaniladigan [va], [hamda], [yo], [yoxud], [yoki], [ammo], [Iekin], [biroq], [chunki], [shuning uchun],

[agar], [ya'ni] kabi yordamchi so'z xos. Qo'shimchasimon bog'lovchi guruhi [-ki (-kim)], bog'lovchi va yuklama vazifasida kela oladigan [-u/-yu], [-da], [-mi] qo'shimchasi mansub. [-u/yu], [-da] qo'shimchasining bog'lovchi vazifasini to'lato'kis bajarishi qator manbada qayd etilgan, [-mi] qo'shimchasida ham bog'lovchilik xususiyati borligini 1. Yomg'ir yog'dimi, hamma joy nam bo'ladi. 2. Karim keldimi, to'polon boshlanadi tipidagi gaplar tasdiqlaydi. Ushbu gaplarda qo'llangan [-mi] qo'shimchasi ta'kid ma'nosini voqelantirgan holda sodda gaplarni bir-biriga bog'lash vazifasini bajarmoqda. Nisbiy bog'lovchiga mustaqil so'z turkumidan o'sib chiqqan, «oraliq uchinchi» tabiatiga (ham mustaqil, ham yordamchi) ega bo'lgan [ba'zan], [bir], [vaqtida], [hali], [goh] ([goho]) kabi so'zlarning takroriy shakli misol bo'ladi. Chunonchi, 1. **Ba'zan** Qoratoyning ishxonasida, **ba'zan** choyxonada tunab yurdi. (Oyb.). 2. Ikki kundan beri **goh** savalab, **goh** shiddat bilan yog'ayotgan yomg'ir hammayoqni ivitib yubordi. (A.Qah.). 3. **Vaqtida** qor yog'adi, vaqtida yomg'ir. Bu gaplarda qo'llanilgan [ba'zan], [goh], [vaqtida] so'zlarining vazifasi bog'lovchiga juda yaqin.

1. Salima tez qaytdi. U yangi xabar olib keldi. 2. Brigadada mehnat yaxshi uyushtirilmadi. Natijada hosil kam bo'ldi. 3. Azimboy ko'p zulm o'tkazdi. Oqibatda xalqning sabr kosasi to'ldi gaplaridagi [u], [natijada], [oqibatda] so'zları birinchi gapni ikkinchi gap bilan bog'lab kelmoqda. Demak, [u], [natijada],

[oqibatda] so‘zi ham nisbiy bog‘lovchi sirasiga kiritilsa to‘g‘ri bo‘ladi. Ikkinchil gapning mazmuni birinchi gapsiz aniq emas. Yordamchi so‘z nafaqat so‘z, hatto gap va matn qismlarini ham bog‘lashga xizmat qiladi.¹

Ushbu ma'lumotlardan ma'lumki bog‘lovchilar keng tushuntirilgan. Bog‘lovchining qo‘sishimchalari haqida qachon?, qanday? Qo‘yilishi haqida ma'lumotlar aytilgan. Bu esa o‘quchilarga tushunarli bo‘lishini ta’minlagan. Buni maktab darsliklariga olib kirishlikni yoki darsni tushuntirishga foydalanishni maslahat beramiz. Chunki bu kitobda sodda qilib yoritib berilgan.

Bog‘lovchilar haqida Andijon davlat chet tillari institute magistranti Mashrabjonov O. o‘zining maqolasida quyidagi ma'lumotlarni aytib o‘tgan.

Bog‘lovchilar gapda qo‘llanilishiga ko‘ra ikki xil: yakka holda qo‘llaniladigan bog‘lovchilar va takrorlangan holda qo‘llaniladigan bog‘lovchilar. Yakka holda qo‘llaniluvchi bog‘lovchilarga *va, ham, hamda, ammo, lekin, biroq, balki*

bog‘lovchilari kiradi. Takrorlangan holda qo‘llaniluvchi bog‘lovchilarga *bir bir, goh goh, ba’zan ba’zan, yo yo*, yoki yoki kabilar kiradi. Bog‘lovchilar vazifasiga ko‘ra *teng bog‘lovchilar* va *ergashtiruvchi bog‘lovchilarga* bo‘linadi.²

Sayfullayeva R. va boshqa mualliflar ”Hozirgi o‘zbek adabiy tili” o‘quv qo‘llanmasida ham ushbu ma'lumotlar bor. Faqat bu kitobda ilmiy yondashilgan va ko‘plab ma'lumotlar berilgan. Ular quyidagilar:

1. Teng bog‘lovchi. 1. Biriktiruv bog‘lovchisi: [va], [-u/-yu], [hamda]. 2. Ayiruv bog‘lovchilari: [yo], [yokil], [yoxud], [goho], [dam] ... dam, [bir ... bir], [ba‘zan ... ba ‘zan]. 3. Zidlov bog‘lovchisi: [ammo], [lekin], [biroq].

2. Ergashtiruvchi bog‘lovchi. 1. Aniqlov bog‘lovchisi: [ya‘ni], [-ki,-kim]. 2. Sabab bog‘lovchisi: [chunki], [shuning uchun], [zeroki,]. 3. Shart bog‘lovchilari: [agar], [agarda], [agarchi]. 4. Chog‘ishtiruv bog‘lovchisi: [go‘yo], [go‘yoki,]. Teng bog‘lovchi, ergashtiruvchi bog‘lovchining ma’no va vazifa tomoni, imlo xususiyati formal tilshunoslik bo‘yicha darslik va qo‘llanmada

¹ “Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sayfullayeva R. Mengliyev B.”

² “Yordamchi so‘z turkumlarining grammatik xususiyatlari. Mashrabjonov O.”

atroflicha bayon etilgan.

Bog'lovchilar kelib chiqishiga ko'ra, sof va vazifadosh bog'lovchilar singari turlarga ajraladi. **Sof bog'lovchilar** faqat bog'lovchi vazifasini bajaradigan so'zlardir: *va, lekin, chunki, agar*. **Vazifadosh bog'lovchilar** esa, boshqa turkumlarga mansub bo'lib, o'rni bilan bog'lovchi vazifasini bajaradigan so'zlardir.³

Ushbu mavzuni o'rgatish uchun quyidagi metoddan foydalansak bo'ladi.

Til faktlarini analiz qilish metodi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida muayyan matn tarkibidan til hodisalarini belgilangan mavzu yoki bo'lim mohiyati nuqtayu nazaridan kuzatadilar, o'z fikrlarini aytadilar, xulosa chiqaradilar.⁴

Bu metod orqali o'quvchilar bog'lovchining turli turlarini, ularning gapdagi vazifalarini va boshqa so'z turkumlari bilan munosabatlarini chuqur o'rganishlariga yordam beradi. Ushbu metodni quyidagi matn orqali ko'rib chiqamiz.

Bahor

Bahor fasli-tabiatning eng go'zal va yangilanish davri. Bu faslning eng sevimli va intazorlik bilan kutiladigan fasli hisoblanadi. Bahor kelishi bilan qishning sovuqlari ortda qoladi, ob-havo iliqlashadi. Quyosh yanada balandroq ko'tariladi va tabiat jonlanadi. Har bir inson, ayniqsa, bahor faslini yangilanish, o'zgarish va yangilanishlar bilan bog'laydi. Bahorning tarovati va go'zalligi, tabiiy manzaralari hamda uning doirasidagi bayramlar inson ruhini yangilaydi.

Bahorda tabiat o'zining eng go'zal ko'rinishini namoyon qiladi, yerga yangi hayot barglari chiqadi. Bahorda gullagan daraxtlar tabiatga yanada go'zallik bag'ishlaydi. Yashil hududlar kengayib, hovlilarda, gullar ochiladi. Gullar, qushlarning sayrashi, asalarilarning asal yig'ishlari kabi manzaralarni ko'ramiz.

Navro'z-bahorning kelishi bilan nishonlanadigan bayramlardan biri. Navro'z, asosan 21-mart kuni, bahor teng kunligida boshlanadi, ya'ni kunduzi va tunda vaqt tenglashadi, bu tabiatning uyg'onishini va yangi hayotning

³ Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sayfullayeva R. Mengliyev B

⁴ O'zbek tilini o'qitish metodikasi. Yuldasheva D.

boshlanishini anglatadi.Bu bayramda ko‘plab odamlar bir-birlariga ezguliklar tilaydilar.

Ushbu matnni o‘quvchilar guruh bo‘lgan holatda faktlarni analiz qiladilar.Bog‘lovchilarning vazifasini tushuntiradilar.Bog‘lovchilarning qaysi turga mansubligini aniqlaydilar.

Toshkent shahar Yangihayot tumani 285-maktabning 8 -“d” sinf o‘quvchilari ga bo‘g‘lovchini tushuntirib ushbu usuldan foydalandim.Ushbu usulni guruh bilan ishlagan holda qo‘lladim.O‘quvchilar matndan bog‘lovchilarni topishdi,qanday vazifada kelganini tushuntirishdi va nega aynan bog‘lovchining bu turidan foydalanganliklarini aytib o‘tishdi.Bu usul o‘quvchilarni nafaqat bog‘lovchilarni o‘rgatishga balki matn ustida ishlashlariga ham yordam berdi.

„Grafik test” metodi. Grafik test metodikasi bolaning o‘quv faoliyatiga individual tayyorligi haqida kerakli ma’lumotlarni beradi.Bu jarayonda o‘qituvchining o‘quvchiga u yoki bu o‘quv ma’lumotini berish emas, balki o‘quvchining mustaqil faoliyati shakllantiriladigan muhitni yaratishdan iborat.Grafik test o‘quvchining o‘qituvchini tinglashga,diqqatini jamlay olishga, tushuntirishlarni eslab qolishga qodir yoki qodir emasligini ko‘rsatadi. Grafik test orqali o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida butun sinf bilimini tekshira olishga qodir bo‘ladi.Bu turdagи metod orqali darsning o‘tilgan mavzusini mustahkamlash qismida ishlash juda qulay.,,Grafik test” metodidan matematika, o‘qish savodxonligi ,ona tili va boshqa barcha fan darslarida foydalanish mumkin. Bunda o‘qituvchi mavzularga mos testlarni tuzish ularda jadvalda ma’lum grafika hosil bo‘lishini oldindan tayyorlab oladi.⁵

Ona tili darslarida “Grafik test”dan foydalanish uslubi. Yangi mavzuni mustahkamlash qismida, yoki o‘tilgan mavzuni so‘rashda frontal bilimni tekshirishda foydalaniladi.

O‘quvchilarning qo‘llarida grafik test jadvallari bor.Ular o‘qituvchi o‘qigan har bir savolni to‘g‘rilab belgilab boradilar. Oxirida qaysi o‘quvchilarga grafika

⁵ „Boshlang‘ich sinf darslarida zamonaviy metodlar va interaktiv o‘yinlardan foydalanish” bo‘yicha metodik qo‘llanma Radjabova Sh.

to‘g‘ri chiqsa, o‘sha o‘quvchi rag‘bat kartochkasi bilan rag‘batlantiriladi.

	chunki	Ayiruv bog‘lovchisi	Shuning uchun	Lekin	Ammo
1					
2					
3					

1. Qaysi bog‘lovchi sabab munosabatini bildiradi?
 2. A) "U darsga kechikdi, ___ u uyqudan kech uyg‘ondi." Gapda qaysi bog‘lovchi mos?
B) "Lekin", "ammo", "biroq" bog‘lovchilar qanday munosabat bildiradi?
 3. "U ko‘p mehnat qildi, ___ muvaffaqiyatga erishdi." Bo‘sh joyga qaysi bog‘lovchi qo‘yiladi?
- O‘quvchilarni rag‘batlantirish.

	chunki	Ayiruv bog‘lovchisi	Shuning uchun	Lekin	Ammo
1					
2					
A					
B					
3					

Xulosa. Bog‘lovchilar tilimizda gap va so‘zlar orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni ta’minlovchi muhim vositalardan biridir. Ular orqali fikrlar izchil, mazmunli va tushunarli bayon qilinadi. Bog‘lovchilarning turli shakllari (teng va ergashtiruvchi, sabab, shartli, inkor va h.k.) matnning mazmuniy yaxlitligini ta’minlab, nutqning ravonligiga xizmat qiladi. Bu mavzuni o‘rgatishda til faktlarini tahlil qilish metodidan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini

kuchaytirib, til birliklarini chuqurroq anglashiga imkon yaratadi. Shunday qilib, bog'lovchilar nafaqat grammatik birlik, balki muloqot samaradorligini ta'minlovchi vosita sifatida ham alohida o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Abituriyent.uz sayti.
2. „Boshlang'ich sinf darslarida zamonaviy metodlar va interaktiv o'yinlardan foydalanish” bo'yicha metodik qo'llanma Radjabova Sh.
- 3.“Hozirgi o'zbek adabiy tili.Sayfullayeva R. Mengliyev B, Boqiyeva D,Qurbanova M,Yusupova Z, Abuzalova M.Toshkent-2009
- 4.“Yordamchi so'z turkumlarining grammatik xususiyatlari.Mashrabjonov O.”
- 5.O'zbek tilini o'qitish metodikasi.Yuldasheva D. “Durdon” nashriyoti Buxoro – 2021
